Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24316993

axborotga moslashtirish mumkin boladi. Didaktika tili bilan aytganda, topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish uchun uni bajarishga mos barcha usullarni ozlashtirish kerak. Axborot faqat miqdori boyicha emas, balki maqsadga erishish ehtimolini orttirishga kora qimmati bo’yicha ham olchanishi lozim. Axborotning qimmati qanchalik yuqori bolsa, u olinganidan keyin maqsadga erishish yollari ham shunchalik keng boladi.

Xulosa Shuni takidlash kerakki, ananaviy oqitish uslublari bilan taqqoslaganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar otkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga o’z goyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotlarini yaratishga undaydi. Ushbu talim yondashuvi nazariya va amaliy konikmalarini samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Z.Ashurova.Maktabgacha talimda STEAM texnologiyasidan foydalanish.Metodik qollanma .Durdona nashriyoti.2022

2. M.Ashurova.Talim olish jarayonini samarali boshqarishda pedagogik texnalogiyalarni qollash.Scientific Progress(2021)pp,801-807

3. Z.M.Ashurova Maktabgacha talimda STEAM talim texnalogiyasining ahamiyati.Pegagogs.1:1(2022),pp.233-235

MUSTAQIL TA’LIM ISHLARINI BAJARISHDA PEDAGOGIK INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich
“Kokand University” Andijon filiali,
«Ijtimoiy-gumanitar va pedagogika fanlar» kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.(PhD)
ataxanov1966@gmail.com
Botirova Gavxaroy
tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Mavzuning dolzarbligi: Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. «Ta’lim to‘grisida»gi Qonun va «Kadrlar tayorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Ma’lumki, uzluksizlik va uzviylik ta’lim tizimda, avvalo, jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy

Published: 28.03.2024
Cite this article: Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich, Botirova Gavxaroy (2024). Mustaqil ta’lim ishlarini bajarishda pedagogik innovatsion texnologiyalaridan foydalanish. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316993
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o‘z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi [1].

Pedagogik innovatsiya bir qancha asoslarga ega. Pedagogik innovatsiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyaning mafkuraviy asosi uning milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi tamoyillarini o‘zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoyi, mustaqil fikrlay oladigan xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo‘ladigan, bilimli, ma’rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga yetkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik innovatsiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarining falsafiy jihatdan to‘g‘ri yo‘nalishda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Falsafiy oqimlar va yo‘nalishlarning har biri ta’lim-tarbiya masalalariga o‘ziga xos yondashadi. Shu sababdan pedagogik innovatsiyaning falsafiy yo‘nalishi, uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, jamiyatning ma’lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko‘rsatadi. Pedagogik innovatsiyaning didaktik asosi uni ta’lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta’lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to‘g‘ri bajarilishini ta’minlaydi.Pedagogik innovatsiyaning didaktik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi uning yuqori samaradorligini zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi [2].

Mavzuga oid mavjud muammolar: Ma’lumki, har qanday pedagogik innovatsiya ta’limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslangan bo‘lib, u talaba shaxsini tarbiyalashga unda kasbiy mahoratni hosil qilishga yo‘naltirilmog‘i kerak. Ta’lim jarayonining faol sub’ektlari pedagog va talabalar bo‘lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asosida) bo‘yicha kam kuch va vaqt sarflangani holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi. Tahlil va natijalari: O‘qituvchining faol, samarali faoliyat ko‘rsatishiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta’limning musiqa o‘qitilishida innovatsion texnologiyalari ta’lim oluvchi (talaba)larga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning shaxsiy, shuningdek o‘qituvchi bilan birgalikda

faoliyatini hisobga olgan holda, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga qaratiladi. talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘quv materiallariga tanqidiy yondashish ko‘nikmasini shakllantirish hamda maxsuldor faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda ularning rivojlantirish uchun darsning an’anaviy shakllari (uyg‘unlashtirilgan darslar) bilan birgalikda konferentsiya darsi, ishchan o‘yin darslari, integrallashtirilgan (ikki komponentli) darslardan foydalanish lozim. Mazkur vaziyatda ta’lim metodlari ta’lim maqsadi bilan mutanosib bo‘lishi kerak. Chunonchi, bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlar, yangi sharoitda faoliyat ko‘rsatishga undovchi sxemalar tuzish, ularni tasniflash, qiyoslash, izchil tizimga solish, umumlashtirish va boshqalar. Yetarli darajadagi rag‘bat (motivatsiya) hamda talabalar faoliyatini tashkil etish bilan ham ko‘zlangan natijalarga erishish kafolatlanmaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonining didaktik nuqtainazardan takomillashuvi faqatgina ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarish yo‘llarini to‘g‘ri tanlash bilan ta’minlanadi.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zida uchta o‘zaro aloqador uchlik-ta’lim, tarbiya va shaxs rivojlanishini aks ettiradi. Mazkur uchlikni ta’lim jarayoniga barobar tatbiq qilish modullashgan texnologiyani qo‘llashni osonlashtiradi. Modullashgan texnologiyaning afzalliklaridan biri – ta’lim maxmunini tartibga solishdan iborat. Unda mavjud axborotlarning Davlat ta’lim standartlari doirasida o‘quvchilar faoliyatini etarli darajada muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradiganlari qat’iy tanlab olinadi. Modulli texnologiyaning mohiyati ta’lim jarayonini modullar asosida lotsihalashtirishdan iboratdir (o‘quv predmeti va uning bo‘limlari mazmunini tartibga solish, ta’limning muayyan bosqichidan boshlab bo‘linmaydigan kasbiy faoliyatni mantiqan tugallangan qismlarga ajartish). So‘ngra ajratilgan har bir modul bo‘yicha shu modulning o‘zigagina taalluqli bo‘lgan faoliyat mazmuni va ta’siri doirasi belgilanadi. Moduli texnologiya maqsadini ro‘yobga chiqarish uchun modul bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda sodir etilayotgan har bir harakat (qo‘yilayotgan qadam) o‘quv elementi sifatida qaraladi. O‘quv elementi o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: faoliyatning aniq elementlarini o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy va amaliy axborotlar, ta’lim uchun zarur bo‘lgan faoliyatni ta’minlovchi materiallar haqidagi ma’lumotlar, maqsadlar identifikatsiyasi, ya’ni, ta’lim oluvchilarni harakatlantiruvchi maqsadlar, o‘quv materiallari, o‘quv sharoitini nazorat qilish instrumentlari, chunonchi, o‘quvchilarning ko‘zlangan natijalarga erishishlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar, testlar, maqsad etaloni va boshqalar. Ta’lim texnologiyasi jarayonining umumiy maqsadi bir necha darajalarda oydinlashadi. Birinchisi - ta’lim muassasasining maqsadi hamda pedagog va uning metodik faoliyati identifikatsiyasi. Ikkinchisi – o‘quv predmeti (bo‘lim)ning maqsadi, pedagog va uning metodik faoliyati indentifikatsiyasi. Uchinchisi – ushbu modul

(o‘quv elementi)ning maqsadi va uning talabalar faoliyatidagi alohida modulga ham, uning tashhis qilinadigan oxirgi natijalariga ham o‘tkaziladi.

Muammoni hal qilish usullari: «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va Kadrlar tayyorlashning milliy modeli, o‘quv predmetlari bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari, ularda ilgari surilgan g‘oyalar asosida chiqariladigan xulosalar, yosh avlodning barkamol shaxs etib shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunini, shuningdek tegishli mashg‘ulotning umumiy, aniq maqsadiga erishish uchun ta’limning tashkiliy shaklini tanlash hisobga olinadi. Zamonaviy ta’limning eng muhim elementlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta’lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an’anaviy kategoriyalar bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma’lum predment, mutaxassislik yoki ixtisoslikk bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsaldga muvofiq ravishda yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni qonuniyat va mezonlar tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasida maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun etarli bo‘lib kelgan. Muayyan davrlarda bir guruh pedagoglar barcha davrlarda pedagog faoliyat darajasi qoniqarsiz ahvolda deb baholab kelganlar.

“Talabalarning mustaqil ishlari oliy ta'limda ilm olish jarayonining asosiy va muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda bunga umumiy ta'lim vaqtining yarmidan ko‘pini ajratiladi. Fan bo‘yicha o‘quv maqsadlariga erishish uchun bu ulkan zahira hisoblanadi. Afsuski, amalda undan to‘la foydalanilmaydi, ba'zan o‘qituvchining e'tiboridan chetda qolib ketadi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida mustaqil ishni tashkil qilishning juda ko‘p usullari ishlab chiqilgan”. Talabalarning mustaqil ta'limi – talabaning o‘quv predmetiga aylantiradigan bilish faoliyati, kasbiy rivojlanishda o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi shakllanadi, o‘qituvchi tomonidan bilvosita nazorat qilinib, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishga hamda bo‘lajak mutaxassisning kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ta'rifda biz uchun quyidagi xususiyatlar muhim ahamiyatga ega: - talabalarning bilish faoliyati; - o‘qituvchi tomonidan bilvosita rahbarlik; - talabalar o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmini shakllantirish; - kasbiy bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish: - mutaxassisning kasbiy mahoratini rivojlantirish; - mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish kompetentsiyalari shakllantirish [3]. Talabalar mustaqil ta'limini faollashtirish – talabalar mustaqil ta'limining har bir bo‘g‘inini qamrab oluvchi chora-tadbirlar tizimi: talabalarning ijodiy bilish faoliyati, rahbariyat tomonidan mustaqil ta'limlarni takomillashtirish, mustaqil ta'limlarning faol shakl va usullaridan foydalanish va mutaxassis shaxsining

kasbiy sifatlarini takomillashtirishdir. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonlarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin. Mustaqil ishni tashkil qilish bosqichlari Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va uni faollashtirish psixologlar, pedagoglar, hamda uslubshunoslar tomonidan pedagogik muammo sifatida muhokama qilinayotgan holatlar ham juda ko‘p. Bunday tadqiqotlar ta'lim oluvchilarning o‘quv jarayonidagi mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini umumiy ko‘rinishda shakllantirishga imkon yaratadi. Olib borilgan izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan o‘quv-uslubiy monografiyalar va elektron ta'lim resurslari asosida bo‘lajak kasb ta'limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni faollashtirish uchun didaktik ta'minoti boyitiladi. Bunda talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari (motivatsiya, yo‘naltirish, jalb etish va tajribalarni boyitish) kengaytiriladi. Talabalarda mustaqil ishlash metodik kompetentlikni shakllantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida talabaning o‘z-o‘zini anglash, baholash va boshqarish kabi tarkibiy qismlarni rivojlantirish va turli ta'lim muassasalarida ishlashga tayyorlash sanalsada, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini o‘rganish vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim: - aniq pedagogik hamda ishlab chiqarish muammoli vaziyatlarda masalani ajratib olish va ularni hal qilish usuli sifatida pedagogik va texnik-texnologiktafakkurni rivojlantirish; - bo‘lajak kasb ta'limi o‘qituvchisining pedagogik-shaxsiy faoliyati asosi sifatida pedagogik, umumkasbiy va ixtisoslikka oid bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga erishish; - bo‘lajak kasbiy faoliyat individual metodining asosi sifatida, o‘quv- pedagogik va ishlab chiqarish harakatlarining reproduktiv va ijodiy usullarini shakllantirish; - muhim kasbiy-pedagogik sifatlarini rivojlantirish (hamdardlik, bolalani sevish va boshqalar), kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirish hisoblanadi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar: Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik vositalari, talabaning dasturiy bilim, tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o‘quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg’ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jaxon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining talabalarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Ta’limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta’lim muxiti sharoitida mustaqil ravishla faoliyat ko‘rsata olishga axborot oqimidan oqilona foylalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoiniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shuga ko’ra yoshlarining talab va istaklaridan kelib chiqqan holda umumkasbiy fanlarni axborot komunikatsion texnologiyalar orqali tayyorlab, yoshlarning yanada bilim va

ko’nikmalarini shakllantirishga harakat qilish bugungi kun dolzarb muammosi desak xato qilmagan bo’lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://www.tdpu.uz/page/innovatsion-texnologiyalar
2. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirisg yo‘llari. – Toshкент: ToshDPU, 2004. - 44 b.
3. See discussions, stats, and author profiles for this publication at: https://www.researchgate.net/publication/328321322 An Integrated Model for STEM

INNOVATSION TA`LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA ZAMONAVIY KADRLAR TAYYORLASHNING O`ZIGA XOS JIHATLARI

Orzikulova Hurshida Ne`matjonovna
Andijon Davlat Universiteti 1-kurs magistranti
orzikulova2022gmail.com

Innovatsion ta’lim texnologiyalari zamonaviy kadrlar tayyorlashning muhim elementi hisoblanib, globallashayotgan va tez o‘zgarib borayotgan dunyoda muvaffaqiyatli halqaro miqyosda yetuk bo`lgan mutaxasislarni tayyorlash uchun zarur ko‘nikma, bilim va malakalarni ta`minlab beradi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari bir necha sabablarga ko'ra zamonaviy kadrlar tayyorlashda muhim rol o'ynaydi:

1. Mehnat bozori talablariga javob berish: Innovatsion texnologiyalar mehnat bozorida talab qilinadigan zarur ko‘nikma va bilimlarni egallashda yordam beradi. Bu ayniqsa raqamli iqtisodiyotda kasbiy mahorat, jamoaviy ish, muammolarni hal qila olish va o'z-o'zini isloh qilishni o'z ichiga oladi.

2. Tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish: O‘qitishning innovatsion usullari talabalarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va muammolarni ijodiy hal etishga undaydi. Bu ko'nikmalar bugungi tez o`zgarib borayotgan dunyoda yangi vaziyatlarga tezda moslashish qobilyatini shakllantirishda juda muhim hisoblanadi.

3. Ta'limni individuallashtirish: Innovatsion texnologiyalar yordamida har bir talabaning xususiyatlarini hisobga olgan holda individuallashtirilgan ta'limni yanada samaraliroq amalga oshirish mumkin. Bu o'quv natijalarini yaxshilashga va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

4. Global ta’lim: Innovatsion texnologiyalar xalqaro ta’lim loyihalarini yaratish, butun dunyo universitetlari va mutaxassislari bilan hamkorlik qilish imkonini beradi, bu esa talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni xalqaro muhitda ishlashga tayyorlaydi.

5. Kelajakdagi o‘zgarishlarga tayyor turish: Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar o‘zgaruvchan sharoit va